Beadab, faqat o'zinigina yomonga chiqar maydi,
Balki butun olamga o't qo'yib yuboradi.
Goho bu shum va beadab qavmning kasofatidan bu olamga o't tushib turadi.

Demak, ustoz shogirdga nisbatan shafqatli bo'lishi va ularga o'z bolalari kabi muomala qilishi, har xil topshiriq bermasligi kerak. Rasululloh (s.a.v.): "Ota o'z farzandiga qanday bo'lsa, men ham sizlar uchun shundayman", deganlar. Bu vazifani ustoz shogirdlarni oxirat azobidan saqlanishi bilan ado etishi mumkin. Mana shu niyat ota-ona farzandini dunë olovidan saqlashidan ko'ra muhimrokdir. Shuning uchun ustozning haqqi ota-onaning haqqidan ustun qo'yiladi. Chunki ota vujud va foniy hayotning sababchisi bo'lsa, ustoz abadiy hayotning sababchisidir.

Xulosa va takliflar. Musoxon Dahbidiy ustoz-shogird masalasini tahlil qilib, naqshbandiya tariqati nomoyandalari g'oyalaridan misollar keltiradi. "Tariqat mashoyixlari debdurlar: Shayx muridni talqin qilmoqchi bo'lsa, xilvatga kirsin va o'zini muridning hafsalasiga munosib holda jam qilsin. Shundan keyingina, muridni talqin qilsin. Yana debdurlarki, Toshkentda bir qalandar darvish bor edi. Bozor bilan ko'cha orasida nimaiki oldida ko'rinsa, unga qarab yaqinroq kelib, sekingina: "xudo sizlarni bu musulmonliklardan xalos qilsin", derdi. Ey aziz, haqiqiy musulmon shunday kishidirki, mosivalloh uning ko'ngliga mutlaqo yo'l topa olmasin. Chunonchi, sulton Abusaid Abulxayr (qad ruh) Abu Ali Sinodan nasihat qilishni so'radilar. Alloma javobda yozdi: "Nega majoziy islomdan voz kechib, haqiqiy islomga qo'shilmaysan?"[1]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Даҳбидий Мусохон. Навадир ал-Маориф. Тошкент, ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар асосий фонди, инв. № 542/1, В.46А-45Б.
(2). Ўзбекча таржимаси. Тафсири Ҳилол. 2006. дан олинган.
(3). Тафсири Яъқуби Чархий. 68-бет.
(4). Аликулов Ҳ. Абу Наср Форобийнинг ижтимоий-маънавий мероси. Т., "Noshir", 2013, 76-бет.
(5). Мусохон Даҳбидий. Зубдат ал-ҳақāиқ. Т., ФА ШИ қўлёзма, инв № 6576/I, 38А.
(6). Абдул-Холиқ ал-Ғиждувоний. Васиятнома. Т., Ғафур Ғулом, 1993, 15-бет.

Karimov Zafarbek Ataboyevich (Urganch davlat Pedagogika instituti "Milliy g'oya va falsafa" kafedrasi dotsenti., falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); zafar.karimov.1988@bk.ru)

TA'LIM FALSAFASI VA UNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta'lim falsafasining nazariy va metodologik asoslari, uning tarixiy ildizlari hamda yondashuvlari va amaliyotdagi ahamiyati muhokama qilinadi. Shuningdek, turli falsafiy maktablar va ularning ta'limga munosabati falsafiy jihatdan tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim falsafasi, nazariy va metodologik asoslar, antik falsafa (Suqrot, Platon, Arastu), mayyevtika (Suqrot usuli), ideal jamiyat modeli (Platon), aqliy salohiyat, axloqiy tarbiya, sharq falsafasi (Muso Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino), Bayt ul-hikma, Markaziy Osiyo uyg'onish davri, o'rta asr ta'limi, Al-G'azzoliy, Ibn Sino, XX–XXI asr falsafiy yondashuvlari (pragmatizm, ekzistentsializm, postmodern), kasbiy tayyorgarlik, global muammolar va ta'lim.*

Каримов Зафарбек Атабоевич (доцент кафедры "Национальная идея и философия" Ургенчского государственного педагогического института, доктор философии по философским наукам (PhD); zafar.karimov.1988@bk.ru)

ФИЛОСОФИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ЕЕ ТЕОРЕТИКО - МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы философии образования, её исторические корни, подходы и значение в практике. Также проводится философский анализ различных философских школ и их отношения к образованию.*

Ключевые слова: *философия образования, теоретические и методологические основы, античная философия (Сократ, Платон, Аристотель), майевтика (метод Сократа), модель идеального общества (Платон), умственные способности, нравственное воспитание, восточная философия (Мухаммад аль-Хорезми, Аль-Фараби, Бируни, Ибн Сина), Байт аль-Хикма, эпоха Возрождения Центральной Азии, средневековое образование, Аль-Газали, Ибн Сина, философские направления XX–XXI веков (прагматизм, экзистенциализм, постмодерн), профессиональная подготовка, глобальные проблемы и образование.*

[1] Мусохон Даҳбидий. Зубдат ал-ҳақāиқ. Т., ФА ШИ, қўлёзма, инв № 6576/I, 109Б.

Karimov Zafarbek Ataboyevich (Associate Professor of the Department of National Idea and Philosophy of the Urgench State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy (PhD) in the specialty of Philosophical Sciences; zafar.karimov.1988@bk.ru)

EDUCATIONAL PHILOSOPHY AND ITS THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS

Annotation. *This article discusses the theoretical and methodological foundations of the philosophy of education, its historical roots and approaches, and its importance in practice. It also analyzes philosophically different philosophical schools and their approaches to education.*

Keywords: *philosophy of education, theoretical and methodological foundations, ancient philosophy (Socrates, Plato, Aristotle), maieutics (Socratic method), model of ideal society (Plato),* intellectual *abilities, moral education, Eastern philosophy (Muhammad al-Khwarizmi, Al-Farabi, Central Asia, Biruni, Biruni), Renaissance, medieval education, Al-Ghazali, Ibn Sina, philosophical approaches of the 20th-21st centuries (pragmatism, existentialism, postmodernism), professional training, global problems, education.*

Kirish (Introduction). Har qanday rivojlanayotgan davlat o‘zining buyuk kelajagini, avvalo, ta’lim tizimi orqali belgilaydi. Ta’lim – bu faqat bilim berish jarayoni emas, balki barkamol avlodni shakllantirish, unda ma’no, qadriyat, javobgarlik va maqsadli hayot falsafasini yuzaga keltirish vositasi sifatida hizmat qiladi. Bugungi murakkab va tez o‘zgaruvchan dunyoda ta’lim-tarbiya masalalari nafaqat nazariy, balki amaliy zaruratga aylandi. Ta’lim falsafasi bu ta’lim jarayonining mohiyati, maqsadi, usullari va natijalari haqidagi falsafiy fikr yuritish tizimidir. U ta’limning nazariy-amaliy jihatlarini, uning jamiyat va shaxs taraqqiyotidagi o‘rnini chuqur tahlil qiladi. Zamonaviy davrda ta’lim falsafasi nafaqat ta’lim tizimidagi muammolarni hal etishda, balki yangi ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda falsafiy tafakkurning yangilanishi bir jamiyat a’zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o‘zgarishi barobarida jamiyat tafakkurining o‘zgarishida namoyon bo‘lmoqda 89–92-b.]. Ta’lim falsafasining tarixiy ildizlari qadimgi falsafiy maktablarga borib taqaladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ta’lim falsafasi va uning nazariy va metodologik asoslari mavzusidagi adabiyotlarni tahlil qilish, bu tushunchalarning tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekstda qanday rivojlanganini va hozirgi zamon jamiyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tushunishga yordam beradi. Antik falsafada (Suqrot, Platon, Arastu): ta’lim – insoniylik va aqliy kamolot vositasi sifatida qaralgan. Platon “Davlat” asarida ideal ta’lim tizimi modelini taklif qilgan. Antik falsafa davrida ta’lim inson tabiati va jamiyat rivoji uchun juda muhim vosita sifatida qaralgan. Bu davr mutafakkirlari ta’lim orqali insonning ruhiy va aqliy salohiyatini yuksaltirish, uni haqiqatni anglashga yetaklash mumkin, deb hisoblashgan.

Suqrot ta’limni inson ongini uyg‘otish jarayoni, deb tushungan. Uning “mayyevtika” deb atalgan usuli – suhbat va savol-javob orqali talabani o‘z bilimini kashf etishga undashdan iborat edi. Unga ko‘ra, haqiqiy bilim inson ichida mavjud, ta’lim esa bu bilimni “tug‘dirish” vositasidir. Shuning uchun Suqrot fikrlash, tanqidiy savol berish va axloqiy ma’naviyatni shakllantirishga alohida ahamiyat bergan [2;416-b.]. Ta’lim falsafasi buyicha birinchi bo‘lib Pifagorlar Ittifoqi, Sokrat maktablari doirasida paydo bo‘lgan. Antik davrda ta’lim falsafasining rivojlanishida ikki ziddiyat kuzatiladi. Ulardan biri ta’limning inkor etgan og‘zaki ta’lim va o‘z-o‘zini tarbiyalashga qaratilgan sofistlar faoliyati bo‘lsa, ikkinchisi esa doimiy maktablarni tashkil etishda murakkabliklar bilan belgilanadi. Suqrot Afinadagi uch yillik falsafadan dars beruvchi doimiy maktabni yaratdi. Suqrotning qarashlari dialogga asoslanib, ma’no dialektikasi turli fikrlarda o‘z ifodasini topadi va haqiqatga erishishda turli fikrlarni eshitish zarurligini ko‘rsatib, suhbat Suqrot ta’limining asosi sifatida ko‘riladi. Suqrotcha suhbatlar mohiyati shundan iboratki, u rad qilish orqali suhbatning mohiyatiga yetib boradi. Suhbatdan maqsad mohiyatni birgalikda topish. Suqrot o‘quvchiga o‘zini bilimliligi uchun tepadan qarab emas, balki xech narsani bilmaydigan odam singari munosabatda bo‘ladi. Suqrot o‘zining uslubini “ta’sir qilish san’ati”, deb atagan. Bu usulning o‘ziga xosligi u insondagi eng yaxshi jihatlarini namoyon qilish, ularni rivojlantirish, qayta dunyoga keltirishga yo‘naltirilgan [3;4002–4006-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ta’lim falsafasi va uning nazariy va metodologik asoslari mavzusida olib boriladigan tadqiqotning metodologiyasi, asosan, ijtimoiy fanlar doirasida qo‘llaniladigan turli metodlarni o‘z ichiga oladi.

Platon o‘zining mashhur “Davlat” (Res Publica) asarida ideal jamiyat modelini taqdim etadi. Unda ta’lim markaziy o‘rinda turibdi. Platonga ko‘ra, har bir insonda aqliy salohiyat mavjud, ammo uni rivojlantirish uchun to‘g‘ri va sqichma-bosqich ta’lim zarur. U ta’limni bolalikdan boshlab falsafagacha olib boradigan yo‘l sifatida ko‘radi. Platon ta’lim orqali insonlarni tabiatlariga mos ravishda jamiyatdagi o‘rniga tayyorlashni maqsad qilgan, ya’ni, hokimlar, qo‘riqchilar va ishlab chiqaruvchilar tabaqalari uchun alohida

ta'lim tizimi. Arastu ta'limga amaliy yondashuv bilan qaragan. U inson tabiatiga va maqsadiga mos ta'lim berish zarur, deb ta'kidlagan. Unga ko'ra, ta'lim nafaqat nazariy bilim berish, balki axloqiy tarbiya, fikrlash qobiliyatini shakllantirish va hayotda to'g'ri qarorlar qabul qilishni o'rgatishi lozim. Arastu ta'limni ikkiga ajratadi: nazariy (falsafa, matematika, tabiat ilmlari) va amaliy (etika, siyosat, iqtisod). U ta'lim orqali inson "aql fazilati"ni, ya'ni hayotni ma'rifiy yo'l bilan boshqarish qobiliyatini qo'lga kiritadi, deb hisoblaydi [4; 416-b.].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqotning birinchi bosqichi ta'lim falsafasi va uning nazariy va metodologik asoslarini tahlil qilishdir. Ushbu bosqichda, ayniqsa, tarixiy va zamonaviy falsafiy qarashlar, estetika va axloqiyotga oid adabiyotlar o'rganildi. Platon, Arestotel, Kant, Shiller kabi faylasuflarning ta'lim falsafasi va uning nazariy asoslari haqidagi qarashlari asosida nazariy tahlil o'tkazildi. Bu yondashuv yordamida ta'lim falsafasi va uning nazariy va metodologik asoslari va ularning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati aniqlandi.

O'rta asrlarda ta'lim tizimi, asosan, diniy falsafa ta'sirida shakllangan bo'lib, bu holat ham Islom, ham Xristian dunyoqarashlarida umumiy tendentsiya bo'lgan. Ta'lim insonni Allohga yaqinlashtirish, uni ruhiy tarbiyalash va aqlni ilohiy haqiqatni anglashga yetaklash vositasi sifatida qabul qilingan. Bu davrda falsafa, ilm va diniy ilmlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Islom falsafasida ta'lim – insonni ma'rifatga, haqiqatga va Allohga olib boruvchi yo'l sifatida qaralgan. Qur'on va hadislarda ilmning fazilati haqida ko'plab dalillar keltirilgan. Qur'onning ilk oyatlaridan biri: "O'qi! Sening Robbing esa eng karim Zotdir – U qalam bilan o'rgatdi. Insonga bilmagan narsasini o'rgatdi" [5;96:3–5-b.]. Qur'onda ilmga chaqiriq: Qur'onning ilk oyatlarida ham izohlab beriladi. Bunda, "O'qi! Sening Robbing esa eng karim Zotdir – U qalam bilan o'rgatdi. Insonga bilmagan narsasini o'rgatdi" [6-Сунан, илм бобида].

Falsafiy ta'limning rivojlanishi Sharqda, xususan, Markaziy Osiyoda ilk o'rta asrlar davrida keng tarqalgan tasavvuf ta'limotidagi komil inson maqomi, nafsni tiyish, bag'rikenglik, diniy donishmandlik, Muso al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa buyuk allomalarning ilmiy va falsafiy qarashlarida o'z aksini topgan. Ularning fandagi yangi yo'nalishlari birinchi galda musulmon Sharqi, qolaversa, butun jahon tabiiy-ilmiy va falsafiy tafakkurining ravnaqiga ta'sir o'tkazib kelgan. Ma'lumki, VIII–IX asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari arab xalifaligi tarkibiga kirgan. Bu davrda xalifalik markazlari – Bag'dod va Damashqda madaniyat, ilm-fan ravnaq topdi. IX asr boshida Bag'dodda "Bayt ul-hikma" – "Bilimlar uyi", Xorazmda esa "Ma'mun akademiyasi" tashkil etildi. Bu dargohda turli shaharlardan taklif qilingan olimlar falsafa va boshqa fanlarni sinchiklab o'rgandilar. Bu davrda Al-Xorazmiy, Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino va boshqa buyuk allomalar o'zlarining falsafa maktablarini yaratganlar. Arab xalifaligining poytaxti Bag'dodda barpo qilingan "Bayt ul-hikma"ga Muhammad Al-Xorazmiy rahbarlik qilgan. Professor N.A.Shermuhammedova o'zining "Falsafa" nomli darsligida ular yaratgan asarlar ahamiyatiga ko'ra o'sha davrni Markaziy Osiyo uyg'onish davri deb nomlab, Uyg'onish davri fani va madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini quyidagilardan iborat deb ko'rsatib o'tadi:

1. Barcha odamlarni ma'rifatli qilishga intilish, bu yo'lda o'tmish merosidan va qo'shni mamlakatlarning fan, madaniyat yutuqlaridan foydalanish, tabiiy-falsafiy va ijtimoiy fanlarni rivojlantirishi.

2. Tabiatni o'rganish, tabiiy-ilmiy bilimlarni oqilonalikka tayanib rivojlantirish, aqlning kuchiga ishonish, asosiy e'tiborni haqiqatni bilishga qaratish, haqiqatni inson bilimining negizi deb bilishi.

3. Insonga xos tabiiy, badiiy, ma'naviy fazilatlarni yuksaltirish, insonparvarlikni ulug'lash, barkamol avlodni tarbiyalashda oliy ma'naviy qonunlarga rioya qilishi.

4. Universalizm – borliq va ijtimoiy hayotning barcha muammolariga qiziqish, bu davr madaniyatining muhim jihatlaridir [7;574-b.].

Al-G'azzoliy "ta'limni nafaqat bilim olish, balki nafsni tarbiyalash, axloqni poklash, qalbni nurlantirish yo'li deb hisoblagan". Uning "Ihyo uluum ad-din" asarida ta'lim va ma'naviyat aloqasi keng yoritilgan. Ibn Sino ilmni Allohning qonuniyatlarini anglash vositasi deb ta'riflaydi. U falsafa va tabiiy ilmlarni, tib va mantiqni ham Ilohiy bilimga yetaklovchi vositalar sifatida ko'rgan. (Al-G'azzoliy, Ihyo uluum ad-din (Islomda ta'limning ma'naviy asoslari haqida).

Yangi davr falsafasi (Kant, Gegel): insonning mustaqil ongi, erkinlik va axloqiy tarbiya masalalari ta'lim falsafasining markaziy mavzusiga aylangan.

XX–XXI asrlarda pragmatizm (Dj.Dyui), ekzistensializm (K.Yaspers), strukturalizm va postmodern kabi yo'nalishlar ta'lim falsafasiga yangi mazmun baxsh etdi. Falsafa oliy ta'limning turli soha va yo'nalishlarida kasbiy tayyorgarlikda alohida o'rin egalaydi. Keyin falsafaning vazifasi nafaqat shaxsiy fazilatlarning shakllanishi, balki muayyan sharoitlarda harakat qiladigan "professional – kasbiy tayyorgarlik – kutilmagan kelajak" shartlarini bilishni ham talab etadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ushbu tanlovga tayyor bo‘lish yosh kadrlarning qobiliyat darajasi bilan bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim falsafasi bu ilmiy va pedagogik kadrlar tayyorlash tizimidir. Xulosa shuki, ta’lim falsafasi insonni rivojlantirish, uni ma’naviy-axloqiy jihatdan yuksaltirish, jamiyatda munosib o‘rin egallashi uchun zarur bo‘lgan ilmiy va nazariy asoslarni yaratadi. U ta’limning mohiyati, maqsadi, shakli va mazmunini chuqur tahlil etishga yordam beradi. Har qanday ta’lim tizimi muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun uning falsafiy asoslari mustahkam bo‘lishi shart. Zamonaviy dunyoda ta’lim falsafasi global muammolarga javob izlaydi, axborot asrida insonning kamolotini ta’minlashni maqsad qiladi. Shu bois ta’lim falsafasini puxta o‘rganish har bir pedagog va mutaxassis uchun muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Mukhtarov U. Family education instead of personnel immunity of the youth and public health. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 2019, T. 9, № 3, c. 89–92.

[2]. Майоров Г.Г. Философия как искание абсолюта: опыты теорет. и ист. М., Едиториал УРСС, 2004, с. 416.

[3]. Mukhtarov U. The historical forms and conceptual peculiarities of philosophical education. International Journal of Scientific & Technology Research. 2020, T. 9, №. 3, c. 4002–4006.

[4]. Майоров Г.Г. Философия как искание абсолюта: опыты теорет. и ист. М., Едиториал УРСС, 2004, с. 416.

[5]. Қуръон Карим. Алақ сураси, 96:3–5.

[6]. Ибн Можа, Сунан, илм бобида.

[7]. Шермухамедова Н.А. Фалсафа. Тошкент, 2010, 574-бет.

Toshpulatov Odil Nodirovich (Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi bo‘lim boshlig‘i)

YOSHLAR AXLOQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH VA AMORALIZMGA QARSHI TURISHDAGI FALSAFIY G‘OYALAR TAHLILI

Annotatsiya. *Ming yillar davomida takomillashib kelayotgan axloqiy munosabatlar xalq amaliyotining natijasidir. Axloq yoshlarning e’tiqod va dunyoqarashi rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababdan tarbiya insoniyat hayotining davomiyigini ta’minlaydigan beqiyos kuchdir. Axloq tamaddunlarning muhim tayanchi bo‘lib hisoblangan. Mazkur maqolada ajdodlarimizning yoshlar axloqiy tarbiyasiga doir muhim nazariy bilimlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *axloq, amoralizm, “Avesto”, zardushtiylik, ezgulik, yovuzlik, adolat, nafs, huquq, jinoyat.*

Тошпулатов Одил Нодирович Начальник отдела Центра исследований развития высшего образования

АНАЛИЗ ФИЛОСОФСКИХ ИДЕЙ В ПОВЫШЕНИИ НРАВСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ И БОРЬБЕ С АМОРАЛИЗМОМ

Аннотация. *Нравственные отношения, совершенствовавшиеся на протяжении тысячелетий, являются результатом народной практики. Нравственность влияет на формирование убеждений и мировоззрения молодых людей. По этой причине образование является ни с чем не сравнимой силой, обеспечивающей непрерывность человеческой жизни. Нравственность считается важным столпом цивилизации. В статье анализируются важные теоретические знания наших предков относительно нравственного воспитания молодежи.*

Ключевые слова: *мораль, аморализм, “Авеста”, зороастризм, добро, зло, справедливость, похоть, закон, преступление.*

Toshpulatov Odil Nodirovich (Head of Department, Center for Research on the Development of Higher Education)

ANALYSIS OF PHILOSOPHICAL IDEAS IN IMPROVING THE MORAL CULTURE OF YOUTH AND COMBATING AMORALISM

Annotation. *Moral attitudes, perfected over thousands of years, are the result of folk practice. Morality influences the formation of beliefs and worldviews of young people. For this reason, education is an incomparable force that ensures the continuity of human life. Morality is considered an important pillar of civilization. The article analyzes the important theoretical knowledge of our ancestors regarding the moral education of youth.*

Keywords: *morality, immorality, “Avesta”, Zoroastrianism, good, evil, justice, lust, law, crime.*